

проводить уроки цифровой безопасности, рассказывать детям о возможных угрозах в интернете, учить их критически относиться к информации и не делиться личными данными с незнакомыми людьми.

Подростки особенно уязвимы перед онлайн-манипуляциями и кибербуллингом, поэтому важно создать культуру осознанного и безопасного использования интернета.

В учреждениях среднего профессионального и высшего образования образовательные программы должны включать в себя дисциплины, связанные с кибербезопасностью. Специалисты разных профессий, будь то программисты, экономисты или педагоги, должны обладать базовыми знаниями в области защиты информации. Это особенно актуально в условиях цифровизации всех сфер деятельности.

Кроме формального образования, важна роль общественного просвещения. Важно создавать социальные проекты, видеоролики, онлайн-курсы и информационные кампании, направленные на обучение широкого круга граждан. Это особенно актуально для пожилых людей, которые часто становятся жертвами телефонных и интернет-мошенников.

Список литературы

1. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-1730 «О мерах по дальнейшему внедрению и развитию современных информационно-коммуникационных технологий» от 21 марта 2012 г.,
2. Бояркина Л.А., Бояркин В.В. Социальные сети как угроза персональным данным/Информационные технологии в профессиональной деятельности и научной работе: сборник материалов Всероссийской научно-практической конференции с международным участием. - Йошкар-Ола: Мар-ГТУ: в 2 ч.- ч. 1.- 2009.- С. 30-33.
3. Информационная безопасность. Анализ и оценка угроз, кибер/криптозащита организаций, разработка безопасного ПО. 2018.
4. Уорли Б. Интернет: реальные и мнимые угрозы. - М.: КУДИЦ-Образ, 2004. - 320 с.
5. http://habrahabr.ru/blogs/social_networks/94849/.

RAQAMLI HUKUMAT: FUQAROLAR MUROJAATLARINI AVTOMATLASHTIRISHDA AKTNING ROLI

Saidrasulov Sherzod Norboy o'g'li

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti dotsenti

sh.saidrasulov@tuit.uz

Annotatsiya: Mamlakatimizda fuqarolar murojaatlari bilan ishlash tizimi, ularni qabul qilish va ko'rib chiqish jarayonlari, shuningdek, bu jarayonlarda zamonaviy axborot texnologiyalari, xususan, Virtual qabulxona va "Murojaatlar" portalining o'rni tahlil qilinadi. Shu bilan birga, fuqarolar huquqlarini ta'minlash, shaffoflikni oshirish va inson omilini kamaytirish maqsadida avtomatlashtirilgan tizimlarning joriy etilishi muhokama qilinadi. Maqola davlat va fuqarolar o'rtasidagi muloqotni yaxshilashda elektron hukumat platformalarining ahamiyatini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Fuqarolar murojaatlari, Virtual qabulxona, elektron hukumat, "Murojaatlar" portali, shaffoflik, avtomatlashtirish, axborot texnologiyalari.

DIGITAL GOVERNMENT: AUTOMATION OF CITIZENS' APPEALS THE ROLE OF ICT

Annotation: The article analyzes the system of handling citizens' appeals in our country, the processes of their reception and consideration, as well as the role of modern information technologies, particularly the Virtual Reception and the "Murojaatlar" portal, in these processes. It discusses the implementation of automated systems aimed at ensuring citizens' rights, enhancing transparency, and reducing human involvement. The article highlights the significance of e-government platforms in improving communication between the state and citizens.

Keywords: Citizens' appeals, Virtual Reception, e-government, "Murojaatlar" portal, transparency, automation, information technologies.


ЦИФРОВОЕ ПРАВИТЕЛЬСТВО: АВТОМАТИЗАЦИЯ ОБРАЩЕНИЙ ГРАЖДАН РОЛЬ ИКТ

Аннотация: В статье анализируется система работы с обращениями граждан в нашей стране, процессы их приема и рассмотрения, а также роль современных информационных технологий, в частности Виртуальной приемной и портала «Murojaatlar», в этих процессах. Обсуждается внедрение автоматизированных систем с целью обеспечения прав граждан, повышения прозрачности и минимизации человеческого фактора. Статья подчеркивает важность платформ электронного правительства в улучшении взаимодействия между государством и гражданами.

Ключевые слова: Обращения граждан, Виртуальная приемная, электронное правительство, портал «Murojaatlar», прозрачность, автоматизация, информационные технологии.

Jismoniy va yuridik shaxslarning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga murojaatchilarning huquqlarini ta'minlash va muhofaza qilishning muhim vositasi sifatida ko'rib chiqilishi zarur. Tahliliy ko'rsatkichlardan shuni ko'rish mumkinki keyingi yillarda aholining AKT savodxonligi oshayotganligi va haq-huquqlarini yanada yaxshiroq talab qilayotganligi sababli ularning davlat boshqaruvida va o'z ehtiyojlarini qondirish yo'lida elektron hukumat platformasi orqali elektron ishtiroki ortib bormoqda. Bu esa davlat islohotlarining nechog'lik to'g'ri ekanligini ko'rsatadi. Bunda murojaatlar bilan ishlashni tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va bir qator Qonunlariga muvofiq amalga oshiriladi [0;0].

Davlatimizda murojaatlar bilan ishlash va ularning ustidan nazorat o'rnatish yuzasidan bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar amaliyotga tatbiq qilingan [0;0;0;0;0]. Mazkur hujjatlarda asosiy tushunchalar ta'riflari, murojaat turlari va shakllari (1-rasm), murojaat etish huquqlari va xavfsizligi ta'minoti, murojaatlarga qo'yiladigan talablar, murojaat aylanish jarayonidagi tartibotlar belgilangan.



1-rasm. Fuqarolar murojaatlarining shakllari va turlari

Murojaatlarni qabul qilish vositalari turlicha tashkil qilinadi. Jumladan, rahbarlarning qabuli, ishonch va/yoki tezkor aloqa telefonlari, videokonferensaloqa, ommaviy axborot vositalaridagi chiqishlar, ommaviy va sayyor qabullar, Virtual qabulxonalar, Xalq qabulxonalari va boshqalar.

Fuqarolar murojaatlari bilan Internet tarmog'ida ishlash vositalariga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti virtual qabulxonasi (**pm.gov.uz**), tashkilotlarning virtual qabulxonalari, rasmiy veb-saytlarni kiritish mumkin.

Xalq bilan davlat o'rtasida eng ishonchli va shaffof ko'prik bu Virtual qabulxona bo'ladi. Virtual qabulxona tizimida kelib tushgan murojaatlar qayd etiladi va belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi [0]. Virtual qabulxona jamiyat va davlatning o'zaro muloqotini yangi bosqichga o'tkazadi, chunki davlat idoralariga qatnash, telefondan qo'ng'iroq qilish va yozma murojaatlarni jo'natish o'rnini bosadi.

Virtual qabulxona bu barcha davlat organlari va tashkilotlarni tuzilmasi bilan yagona nuqtaga ulaydi. Ya'ni bir nuqtadan qabul qilingan murojaatlar tizim tomonidan tegishli tashkilotlarga taqsimlanadi va nazorati reglament asosida olib boriladi.


Murojaatlarni ko'rib chiqish vazifasini amalga oshirishda hokimiyat va davlat organlari harakatlarining izchilligi:

1. Murojaatlarini qabul qilish va birlamchi ishlov berish.
2. Kelib tushgan murojaatlarni ro'yxatdan o'tkazish.
3. Murojaatlarni ko'rib chiqishga yo'naltirish.
4. Murojaatlarga javob tayyorlash.
5. Fuqarolarni shaxsiy qabul qilishni tashkil etish.
6. Murojaatlar bajarilishini nazorat qilish.

Hokimiyat va davlat organlariga murojaat qilish uchun fuqarolarning huquqlarini ta'minlash:

1. Murojaatning ko'rib chiqilishi borishi to'g'risida arizachilarga ma'lumotli axborotni taqdim etish tartibi.
2. Murojaatni qabul qilishni yoki ko'rib chiqishni qonunga xilof ravishda rad etganlik ustidan bo'ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga yoki bevosita sudga shikoyat qilish tartibi.

Fuqarolar murojaatlariga ishlov berishni tashkil etishning namunaviy jarayoni 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Murojaatlarga ishlov berishni tashkil etishning namunaviy jarayoni

Mazkur jarayon quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- ✓ mavjud axborot tizimlarida Internet tarmog'idan foydalanuvchining elektron murojaatini shakllantirish;
- ✓ murojaatni u bilan ishlash bo'limiga yetkazish va uni elektron hujjat aylanish tizimida qayd qilish;
- ✓ murojaatni ijrochilarga yetkazish va unga javob tayyorlashni tashkil qilish; javobni qayddan o'tkazish va uni murojaatchiga yo'llash.

Yuqorida sanab o'tilgan bosqichlardan tashqari o'zaro muloqot jarayoni murojaatchi uchun uning murojaati bajarilishi shaffofligini, shuningdek ijrochi tashkilotni aniqlashning avtomatlashtirilgan tizimi joriy qilinishi orqali inson omili aralashmaganligini kuzatish imkoniyatini ta'minlashi lozim.

Murojaatlarni 10-00 qisqa raqamiga qo'ng'iroq qilish, pm.gov.uz saytidagi maxsus murojaat shaklini to'ldirish orqali yoxud Xalq qabulxonalariga tashrif buyurib yuborish mumkin bo'lgan amaldagi dasturiy tizimi – «**Murojaatlar**» **portali** sifatida qarab chiqiladi. Mazkur portalda murojaatlarni qabul qilish, ular bilan ishlash va javob berish uchun zarur bo'lgan rekvizitlar «**mas'ul xodim**» tomonidan to'ldiriladi va mas'ul tashkilotga ijrosini ta'minlash uchun yuboriladi, lekin, uning bajarilishi tizim tomonidan nazorat qilinadi. Tizim murojaatchiga jarayonning holatini (arizachiga uning murojaatini ko'rib chiqayotgan mas'ul tashkilot kabilar) kuzatishga imkon beradi.

O'zaro muloqotning avtomatik jarayonini joriy etish maqsadida «Murojaatlar» portalida fuqarolarning elektron matnli murojaatlariga ishlov berish moduli yaratilishi lozim. Bu o'z ichiga ikki mantiqiy komponentni oladi:

- ✓ Modul tizimga kelgan matnli murojaatni avtomatik ravishda angelaydi, toifasini aniqlaydi;
- ✓ Murojaatni avtomatik rasmiylashtiradi, shuningdek murojaatchi uning murojaatiga ishlov berish bosqichlari to'g'risida ma'lumotlarni shaxsiy kabinetida tanishishi imkoniyatini ta'minlaydi.
- ✓ Murojaatlarni shakllantirish va jo'natishdan tashqari portal foydalanuvchilariga foydalanishi mumkin bo'lgan quyidagi qo'shimcha axborotni taqdim etadi: murojaatlar bilan ishlashga mas'ul bo'lgan xodimlarining ism-shariflari, eng ko'p uchraydigan savollar va takliflar, tashkilot rahbarlari tomonidan fuqarolarni qabul qilish grafiklari; murojaatning zaruriy rekvizitlari – murojaatlarni shakllantirish tavsiyalari.

«Murojaatlar» portali jismoniy va yuridik shaxslardan tashkilotga kelayotgan murojaatlar bilan ishlashda xodimlarning ishini avtomatlashtirishga, shuningdek murojaat bo'yicha qabul qilingan qarorlar, rezolyutsiyalar ustidan nazoratni ta'minlashga imkon beradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1.O'zbekiston Respublikasining "Elektron hukumat to'g'risida" 2015-yil 9-dekabrda O'RQ-395-son Qonuni.

2.O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida" 2017-yil 11-sentabrda O'RQ-445-son Qonuni.

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida» 2016-yil 28-dekabrda PF-4904-son Farmoni.

4.O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining "Aholi murojaatlari bilan ishlash bo'yicha parlament nazoratini kuchaytirish to'g'risida" 2021-yil 31-iyulda SQ-359-IV-son qarori.

5.O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi qonunchilik palatasi kengashining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlash haqida" 2021-yil 11-oktabrda 1386-IV-son qarori.

6.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risida namunaviy nizomni tasdiqlash haqida" 2018-yil 5-yanvarda 7-son qarori.

7.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida" 2018-yil 7-mayda 341-son qarori.

8.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 3-iyunda 188-son qarori bilan tasdiqlangan Internet tarmog'ida O'zbekiston Respublikasining Hukumat portali to'g'risida nizom talablari hisobga olingan holda davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi namunaviy Nizomi.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ МЕТОДОВ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ В ЗАДАЧАХ ОНКОПРОФИЛАКТИКИ И ДИАГНОСТИКИ

Хидирова Чарос Муродилловна

Доцент Ташкентского информационного технологического университета

Абдуллахужаев Саидисломбек Нематиллаевич

Магистр Ташкентского информационного технологического университета

saidislomabdullakhodjaev@gmail.com

Аннотация: В статье представлен сравнительный анализ алгоритмов машинного обучения, применяемых для ранней диагностики онкологических заболеваний. В работе рассмотрены алгоритмы Random Forest, XGBoost, AdaBoost и другие, протестированные на различных клинических задачах, таких как рак шейки матки, лёгких и кожи. Особое внимание уделено ансамблевым методам, которые продемонстрировали наивысшую точность, особенно алгоритму Random Forest (случайный лес). Подчёркивается